

ADABIY JARAYON VA BADIY-PUBLITSISTIK TALQIN

**Karimova Ro'za Abdusamad qizi**

*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar  
universiteti 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada Ozod Sharofiddinovning munaqqid va publitsist sifatida adabiyot haqidagi fikrlari hamda XX asr zamonaviy o'zbek adabiyotida yuz bergan adabiy hodisa va ijodiy jarayon haqidagi mulohazalari yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Ijodiy jarayon, munaqqid, ijod, publitsistika, kitobxon*

Ozod Sharofiddinov adabiyotshunos olim, adabiy tanqidchi shuningdek, tarjimon sifatida adabiyotimizning yorqin namunalari bo'lgan adiblarimizning hayoti hamda ijodiy faoliyatini o'quvchi kitobxoniga keng yoritib bergan. "Cho'lponni anglash" maqolasida munaqqid shunday fikrni keltiradi: «Cho'lponni anglash – so'z san'atining botiniy qonuniyatlarini teran anglash, ularning shoir ijodida qanday zohir topishini anglashdir. Cho'lponni anglash – uning umumbashariy g'oyalari, uning yuksak insoniy tuyg'ularini yurakka singdirib olishdir. Cho'lponni anglash-Vatanni, ko'hna Turkistonimizni Cho'lpon ko'zi bilan ko'rib, Cho'lpon yuragi bilan seva bilmoqdir».<sup>1</sup>

Munaqqid Cho'lpon bilan cheklanib qolmasdan Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzoda shu kabi bir qancha adiblarimizning faoliyatini yozuvchi va zamondosh sifatida his qilib uni kelajak avlodga ham anglatishga harakat qilgan:

"Adabiyot insonga olam haqida bilim berish bilan birga, ayni damda uning ruhiy olamini boyitishga, uning qalbida umumbashariy ma'naviy e'tiqodlarning barg yozishiga ko'maklashadi"<sup>2</sup>

Sir emaski, adabiyot Ozod Sharofiddinov uchun go'yo bir ummon edi va bu cheksiz dengizdan durni qidirardi. Har bir yozilgan asarga to'g'ri yo'nalish berar ekan, o'g'itlari, tabiiyki, yosh ijodkor qalbida yozuvchilikka bo'lgan ishtiyoqni uyg'otadi. Fikrimiz isboti sifatida munaqqidning quyidagi jumlasini keltiramiz: "Tanqidsiz adabiyot – chiroqsiz ko'chaday gap"<sup>3</sup> Chiroqsiz ko'chani tasavvur qiling, unda qorong'ulikdan adashib qolishingiz yoki to'siqlarga borib urilib ketishingiz mumkun. Natijada siz o'z manzilingizni adashtirasiz. Tanqidiz adabiyot ham xuddi shunday. Ko'plab yosh ijodkorlarga chiroq vazifasini o'tab to'g'ri yo'l ko'rsatgan ustoz Ozod Sharafiddinov poeziya va uning muammolari haqida ham o'z qarashlarini yozib qoldirar ekan quyidagi fikrlar buning isbotidir: "Chinakam poeziya esa hamma vaqt his-tuyg'uga aylanib ketadigan fikrdan yoki fikrga aylangan his-tuyg'udan iboratdir"<sup>4</sup>

<sup>1</sup> Sharafiddinov. O. Ijodni anglaash baxti."Sharq" nashryoti. 2004.36.b

<sup>2</sup> Sharafiddinov. O.Adabiyot hayot darsligi. "Adabiyot va san'at" nashryoti

<sup>3</sup> Sharafiddinov. O.Go'zallik izlab. "Adabiyot va san'at" nashryoti

<sup>4</sup> Sharafiddinov. O.Go'zallik izlab. "Adabiyot va san'at" nashryoti

Har qanday mavjudodda his-tuyg'u borligiga gumon qilamiz ammo hazrati insonning tubsiz ichki dunyosi borki, uning teng yarimni his-tuyg'u boshqaradi. Aslida ham poeziya insonning ong ostida uyg'unlashgan fikrlarini tuyg'ular orqali yaxshilik sari yetaklaydi.

Ozod Sharafiddinovning ustози Abdulla Qahhor shogirdining ijodiy hayotini shunday tariflar ekan, shogirdiga bo'lgan ishonch aks etib turgan so'zlar o'z o'rnini topip tizilganday: "Ozod Sharafiddinov adabiyot ilmiga, aniqroq qilib aytganda, adabiy tanqidchilikka yonib kirdi va hozirgacha manashu fazilatni saqlab qoldi"<sup>5</sup>

Adabiyotshunos olim lirikani ham e'tiboridan chetda qoldirmadi. Zero, ijod bog'iga kirib kelayotgan shoirlarning ko'ngil bulog'idan chiqqan she'rlarini, she'riyat qoniniyatiga moslashtirib asl xalq shoiri qilib tarbiyalashni o'zining ham munaqqidlik, ham olimlik burchi deb bilar edi. Ustozning "Hayot bilan hamnafas" kitobida jamlangan barcha maqolalar bugungu kundagi o'zbek shoirlarining ijod olamini turli xil jarayonlarda tahlil qiladi. Jumladan, "Hayot kuychisi" deb nom olgan yosh shoir Hamid Olimjon, uning suyuqli rafiqasi Zulfiyaxonim, madhiyamiz muallifi Abdulla Oripov va Erkin Vohidov kabi she'riyat yulduzlarining ijodiy ishlarini xolisona baholar ekan, ularga ijodiy parvozlar tilab ularning iste'dodini qaytadan kashf etdi. Chinakam olim, tanqidchi tabiatiga xos bu xislatlar milliy she'riyat olamining gullab-yashnashiga keng yo'l ochdi. Asl xalq shoiri qanday bo'lishi kerakligini ustoz quydagicha ta'riflaydi: "Chinakam shoir, birinchi navbatda mutafakkur, hayot haqida fikrlovchi, uning ustidan hukm chiqaruvchi faylasufdir"<sup>6</sup>.

Adib "Adabiyot hayot darsligi" maqolasining kirish qismini leningradlik bir injenerning "Adabiyot kerakmi?" degan qisqacha sharhi bilan boshlaydi. Ma'lum bo'lishicha, injener maqolada endi bundan buyog'iga adabiyot kerak emas degan yot g'oyani ilgari suradi. Negaki, ilm-fan va texnika insoniyat hayotining asosiy mazmuniga aylanib bormoqda ekan, jamiyatda adabiyotga ehtiyoj qolmaydi. Tabiiyki, unga mutlaqo qarshi ohangda fikr yuritgan Ozod Sharafiddinov insonga adabiyot kerak, chunki inson va adabiyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlik necha ming asrlarni o'z ichiga oladi. "Adabiyot tom ma'noda xalq hayotining ich-ichiga singib ketgan bo'lsa, kitob – non, suv, havo kabi turmushdagi eng zarur narsaga aylanib qoldi"<sup>7</sup>

Darhaqiqat, insoniyatning yaratilish tarixiga nazar solsak, adabiyot Olam va Odam mavjudligidanoq yuzaga kelgan. Axir, Odam ato farzandlarining ilk eshitgan kalomi ham so'z san'atining qudrati bilan bog'liq emasmi, alla va marsiyaning paydo bo'lishi ham aslida badiiyatolamining naqadar ulkan kuchga ega ekanligining isbotidir. Agar uch ming yillik adabiyot tarixiga nazar solsak, "Avesto"da halol mehnat komillikning asosiy mezoni bolsa, «Alpomish» dostonida jismoniy kamolot, mardlik va vatanparvarlik bo'lgan. «Temur tuzuklari»da adolat va qudrat, birlashish va ezgulik yaratish kabi xislatlar bosh o'lchov sanalgan...

<sup>5</sup> Sharafiddinov. O. Ijodni anglaash baxti."Sharq" nashryoti. 2004/6.b

<sup>6</sup> Sharafiddinov. O. Hayot bilan hamnafas. "Toshkent" nashriyoti, 1983.

<sup>7</sup> Sharafiddinov. O. Adabiyot hayot darsligi. "Adabiyot va san'at" nashriyoti".1981, 3-bet

Munaqqid "Adabiyot hayot darsligi" maqolasida ta'kidlashicha, "ADABIYOT o'z vazifasini muvaffaqiyatli bajarishi uchun juda yuksak estetik qimmatga ega bo'lishi, ya'ni badiiy jihatdan mukammal va barkamol bo'lmog'i kerak"<sup>8</sup> Albatta, haqiqatni o'zida mujassam etgan ushbu fikrlardan uzoqlashmagan holda ta'kidlash joizki, ADABIYOT olam haqidagi tasavvurini boyitibgina qolmasdan undagi ilmlarni ham o'rgatadi. O. Sharafiddinovning asarlarini o'qir ekansiz yozuvchi ahli bir asarni yaratishga necha yillik umrini sarf etishini va tarixiy faktlarni izlab topib kitobxonda chuqur tasavvur uyg'otishi uchun qanchalar aqliy va jismoniy mehnat qilishini kitobxonga anglatishga harakat qilgan.

Shuningdek, munaqqidning ushbu maqolasida faqatgina o'tmishdagi bo'lib o'tgan voqealar emas ayni hozirgi zamonimizda ro'y berayotgan hodisa va jarayonlar haqida chiqayotgan asarlar insonning bugungi kundagi turmushida to'liq va aniq javob ololadi degan fikrlar uchraydi. Bir tirik qalbning umr yo'llarini ma'naviy ozuqa bilan boyitishda hamda tartibsiz bo'lib yotgan ichki dunyosini to'g'ri bir qolipga solishda asar o'z qahramonlari va ularda kechgan hissiy kechinmalari ila yordam beradi. Adabiyot olamidagi go'zal muhitni yaratish uchun, avvalo, yozuvchi asarini ko'rib chiqish, unga xolisona e'tibor qaratish kerak. Aks holda hayotni yuzaki tasvirlagan chuqur va salmoqli fikrlardan holi bo'lgan sun'iy va uydirma voqealar asosida barpo qilingan o'rtamiyona asarlar kitobxonlar hayotida bu darajada iz qoldirmaydi. Ozod Sharafiddinovning ushbu asarida jahon adabiyoti ham chetda qolmaganini ta'kidlar ekanmiz jahon adabiyoti bizni doimo vijdon amri bilan ish tutishimizga undaydi. Munaqqid adabiy jarayonning qaynoq nafasi bilan yashadi. Ozod Sharafiddinovning ijod va ijodkorning adabiyot hamda jamiyat oldidagi burchi to'g'risidagi qirralari, ayniqsa, suhbat-maqolalarida yorqin ifodalangan. Ustoz istiqloldan keyingi yillarda juda ko'p adabiyotshunoslar, yozuvchilar, jurnalistlar bilan adabiy hayot haqida qilgan suhbatlarida hozirgi adabiy jarayondagi muammoli masalalarni qalamga oladi. Adabiy hayotimizning biror nuqtasida yilt etgan iste'dod bo'lsa Ozod Sharafiddinovning nazaridan chetda qolmadi. "Ijodni anglash baxti" kitobiga yozgan so'zboshisida Umarali Normatov haqli ravishda ta'kidlaganidek, "Ozod Sharafiddinovning so'nggi yillarda yaratilgan adabiy-tanqidiy asarlari, suhbat va badialari (adabiy-tanqidchilik asarlari) mustaqillik davri milliy adabiyotimizda, ma'naviy hayotimizda jiddiy hodisa bo'ldi, deyish uchun to'la asos beradi"<sup>9</sup>

Tanqidchilikning mashaqqatli yo'llarini bosib o'tish jarayonida badiiy-publitsistik, poeziya, esse, lirika va adabiyotning barcha tarmoqlari keng tomir yozishi uchun yumshoq tabiatlilik ila ba'zida qattiqqo'lik bilan ijodkor ahlini parvarishladi. Adabiy jarayonning qaynoq nafasidan bahramand bo'lgan tanqidchi Ozod Sharafiddinov badiiylik prinsipini to'g'ri va xolisona belgilashda o'zining bilim ko'nikmalariga tayangan holda milliy adabiyotimizga o'z hissasini qo'shdi.

<sup>8</sup> Sharafiddinov O. Adabiyot hayot darsligi. "Adabiyot va san'at" nashriyoti

<sup>9</sup> Sharafiddinov. O. Ijodni anglash baxti."Sharq" nashriyoti. 2004/11.b

Darhaqiqat, istiqloq Ozod Sharafiddinovga ijod imkoniyatlarini keng ochar ekan, buyuklar siymosini aks etirgan ijodiy meroslar qoldirib, yillar davomida qalbida o'ylab, yozilishi kerak bo'lgan muhim nuqtalarini adabiy jarayonlarda tanqidiy maqolalar, ocherklar, esselar, poeziyalar orqali bayon qilib berdi, garchi u roman yoki katta bir tomli kitoblar yozmagan bo'lsa ham ana shunday yozadigan qalamkashlarni tarbiyalab ular ijodini to'g'ri anglashdek baxtni bera oldi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sharafiddinov. O. Hayot bilan hamnafas. "Toshkent" nashriyoti, 1983.
2. Адабиёт-ҳаёт дарслиги. — Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981—  
96 б
3. <https://uzsmart.ru/kutubxona/muallif/418-normat-yo%CA%BBldoshev.html>
4. "Millatni uyg'otgan adib" «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining 2004 yil 44-sonidan
5. Sharafiddinov. O. Ijodni anglaash baxti."Sharq" nashryoti. 2004.36.b